Sintaktik stilistik vositalarga g'azallardan namunalar ko'rib chiqamiz.

*"**O'ldi** ko'nglum, ey rafiqon, chorasiz dardi bila.."*

Alisher Navoiyning bu g'azali sintaktik stilistik vositalarning inversiya turiga mos bo'lib, bunda, ko'pincha, fe'l, ya'ni kesim misra boshiga chiqariladi. O'zbek tilida kesim gapning oxirida kelishi lozim, ammo shoir "O'ldi" so'zini misra boshiga chiqarib, o'lim va fojianing darajasini dastlabki o'ringa qo'ymoqda. Ingliz tiliga tarjimon Izzatulla Ahmedov "Dead is my heart, O friends, with a cureless pain..." kabi tarjima qilgan. Tarjimon Navoiy yaratgan sintaktik urg'uni saqlab qolib, "Dead is..." shaklida inversiyani qo'llagan hamda o'quvchi e'tiborini darhol "o'lim" holatiga qarata olgan.

Keyingi tahlil ritorik so'roq san'atiga tegishli bo'lib, Lutfiy g'azalidir.

"Seningdek dahr aro zebo qachon bo'lur?
Va yo gulshanda sen kibi rano qachon bo'lur?"

Shoir bu yerda "Hech qachon bo'lmaydi" demoqchi, ammo so'roq shaklini qo'llab, go'zallikning mislsizligini ta'kidlamoqchi. Ingliz tiliga tarjimon Izzatulla Ahmedov quyidagicha tarjima qilgan:

"When could there be a beauty like you in this world?
Or a rose as graceful as you in the garden?"[1]

Tarjimada "When could there be...?" strukturasi orqali ritorik so'roqning barcha emotsional holati ko'rsatib berilgan. Bu yerda sintaktik parallelizm (ikki misraning bir xil so'roq bilan tugashi) she'rning ritmini saqlaydi.

"Tole' yo'qi joni mayaxzunimga balodur,
Har necha ki qilsam, g'ami olam menga davodur"

Bu g'azal misralarida antiteza – tazod san'ati qo'llanilgan bo'lib, "Balo" (musibat) va "Davo"(shifo) so'zlari o'rtasida qarama-qarshilik mavjud. Inglizcha tarjimasi:

*"Lack of fortune is a **calamity** for my grieved soul,*
*Whatever I do, the world's sorrow is a **remedy** for me."*[2]

Bobur qalamiga mansub bu g'azalda tarjimon "Calamity" (balo) hamda "Remedy" (davo) so'zlaridan foydalanib, antitezaning kontrastini yanada yaqqolroq ko'rsata olgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, stilistik vositalarning tarjimadagi modifikatsiyasi – bu asarni "o'ldirish" emas, balki uni boshqa tillar muhitida "qayta jonlantirishdir" san'atidir. Tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos kabi yo'l tutsagina, g'azalning o'lmas ruhi o'zga tillardagi kitobxon qalbiga kira oladi.

Shu nuqtayi nazardan, stilistik modifikatsiya asliyatning badiiy qiymatini boshqa til vositalari yordamida qayta tiklashning yagona va samarali usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
(2). A.Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. G'afur G'ulom, 2011, 150-bet.
(3). Lutfiy. Sensiz sog'inganda... yoki Lutfiy devoni. G'afur G'ulom, 201, 45-bet.
(4). Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Lutfi. "Fan", 2013, 16-bet.
(5). Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Babur (Boburdan tanlangan lirika) yoki "Babur: Gazels" antologiyasi. "Fan", 2013, 20-bet.

Yakubov Sherzod Kamildjanovich (RANCH Texnologiya universiteti o'qituvchisi, Xorazm viloyati, Urganch shahri, O'zbekiston: ORCID:0009-0007-3725-912X; e-mail:sherzodyakubov554@gmail.com)

AMIR TEMUR SHAXSIGA BAG'ISHLANGAN ASARLARNING YUZAGA KELISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiy manbalarga tayanib, Amir Temurga bag'ishlangan ilk asarlarning paydo bo'lishi o'rganiladi. Tadqiqotda Sohibqiron Amir Temurga oid Sharq va G'arb manbalarini tahlil qilish uchun tarixiy-tavsiflash usuli, manbalarni tahlil qilish va kontekstual yondashuv qo'llaniladi. Xususan, unda Ibn Xaldun, Nizomiddin Shomi,va Ruy Gonsales de Klavixo kabi mualliflarining asarlari o'rganiladi. Tadqiqotda ushbu asarlarning yaratilish sharoitlari, mualliflarning tarixiy voqealarga munosabati va Temur shaxsiyatini tasvirlashga yondashuvlari tasvirlangan. Ushbu manbalar nafaqat Amir Temur faoliyatiga oydinlik kiritadigan, balki o'sha davrning siyosiy, diniy va madaniy holatini ham aks ettiruvchi muhim tarixiy material hisoblanadi.*

[1] Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Lutfi. "Fan", 2013, 16-bet.
[2] Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Babur (Boburdan tanlangan lirika) yoki "Babur: Gazels" antologiyasi. "Fan", 2013, 20-bet.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, “Zafarnoma”, Ibn Xaldun, Clavijo, tarixiy manbalar.*

Якубов Шерзод Камилджанович (преподаватель, Технологический университет RANCH, Хорезм, Ургенч, Узбекистан; ORCID: 0009-0007-3725-912X; e-mail:sherzodyakubov554@gmail.com)

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, ПОСВЯЩЁННЫХ ЛИЧНОСТИ АМИРА ТИМУРА

Аннотация. *В данной статье рассматривается появление первых произведений, посвященных Амиру Тимуру, на основе исторических источников. В исследовании используется историко-описательный метод, анализ источников и контекстуальный подход для анализа важных восточных и западных источников, относящихся к эпохе Амира Тимура. В частности, рассматриваются работы восточных авторов, таких как Ибн Халдун, Низамуддин Шами, и Руй Гонсалес де Клавихо. Анализ показывает, что первые произведения об Амире Тимуре были написаны в основном непосредственными свидетелями событий и современными авторами. Эти источники считаются важным историческим материалом, который не только проливает свет на деятельность Амира Тимура, но и отражает политическую, религиозную и культурную ситуацию того времени.*

Ключевые слова: *Амир Тимур, “Зафарнама”, Ибн Халдун, Клавихо, исторические источники.*

Yakubov Sherzod Kamildjanovich (Lecturer, RANCH Technological University Khorezm, Urgench, Uzbekistan; ORCID: 0009-0007-3725-912X e-mail: sherzodyakubov554@gmail.com)

THE EMERGENCE OF WORKS DEDICATED TO THE PERSONALITY OF AMIR TIMUR

Annotation. *This article examines the emergence of the first works devoted to Amir Timur based on historical sources. The study uses a historical-descriptive method, source analysis, and a contextual approach to analyze important Eastern and Western sources relating to the era of Amir Timur. In particular, it examines works by Eastern authors such as Ibn Khaldun, Nizam al-Din Sham and as well as Ruy González de Clavijo. The study describes the circumstances surrounding the creation of these works, the authors’ attitudes toward historical events, and their approaches to describing Timur’s personality. These sources are considered important historical material that not only sheds light on Amir Timur’s activities but also reflects the political, religious, and cultural situation of the time.*

Keywords: *Amir Timur, “Zafarnama”, Ibn Khaldun, Clavijo, historical sources.*

Kirish. Qoidaga ko‘ra, badiiy asar qaysi tilda yozilishidan qat’i nazar, tarixiy shaxsga bag‘ishlangan bo‘lsa, demak, bu siymo o‘z yurti chegarasidan tashqariga chiqadigan, jahon miqyosida e’tirofga sazovor bo‘lgan alohida ahamiyatga ega. Amir Temur ana shunday benazir siymolardan biri ekanligi jahon hamja-+miyatiga ayon.[1] Darhaqiqat, Amir Temurdek buyuk va nufuzli shaxs yozuvchilar (jumladan, jurnalistlar), shuningdek, rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar, haykaltaroshlar, musiqachilar va boshqa ijodkorlarning e’tibori va hayratidan chetda qola olmadi.[2]

Temur haqidagi dastlabki tasavvurlarni asosan ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: bevosita guvohlarning qaydlari va rasmiy tarixiy solnomalar. Bevosita guvohlar, jumladan, buyuk arab tarixchisi Ibn Xaldun hamda ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo tomonidan yozilgan manbalar - Temurning shaxsiyati, saroy hayoti va diplomatik faoliyati haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri va hayotiy tasvirlarni taqdim etadi. Ularning qaydlari tarixiy real voqealarning jonli aksidir. Bunga qarama-qarshi holda, rasmiy solnomalar xususan, Nizomiddin Shami tomonidan yozilgan, keyinchalik, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan qayta ishlangan “Zafarnoma” kabi asarlar Temur siymosini ulug‘lash va Temuriylar sulolasining siyosiy qonuniyligini asoslash maqsadida maxsus tuzilgan. Shu bilan birga, Ibn Arabshoh kabi dushmanona kayfiyatdagi manbalarda Temur butkul boshqa ko‘rinishda – shafqatsiz va vayronkor hukmdor sifatida tasvirlangan. Bu manbalar Temur obrazining turli davrlar va mualliflar qarashlariga qarab qanday shakllanganini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Amir Temur shaxsiga bag‘ishlangan dastlabki asarlarning paydo bo‘lish jarayonini o‘rganish uchun tarixiy-tavsiflash usuli qo‘llanildi. Bundan tashqari, manbalarni tahlil qilish orqali Temuriylar davridan qolgan yozma manbalar o‘rganildi, ularning yaratilish shart-sharoitlari, muallifning mavqeyi va tarixiy kontekst aniqlandi. Tadqiqotda kontekstual yondashuv qo‘llanildi va asarlarda aks etgan voqealar o‘sha davrning siyosiy, diniy va madaniy muhiti bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Sharq va G‘arb mualliflarining Amir Temur haqidagi tarixiy asarlari tadqiqot materiali sifatida tanlab olindi va ularning mazmuni tizimli va izchil o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. XIV asrda yashab o‘tgan ikki buyuk siymo Sohibqiron Amir Temur va mashhur olim Ibn Xaldun o‘rtasidagi uchrashuv o‘z zamonasi uchun noyob voqea bo‘lib, tarixiy, siyosiy va ilmiy

1 Али М. Амир Темур чамани. Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2006, 182-бет.
2 Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент, “Шарқ”, 1996, 14-бет.

ahamiyatga egadir. Amir Temur mohir sarkarda va markazlashgan davlat asoschisi, Ibn Xaldun esa tarix-shunoslik, sotsiologiya va falsafa sohalarida chuqur ilm egallagan,[1] "Muqaddima" asari bilan mashhur bo'lgan taniqli Tunislik mutafakkir edi. Bu ikki ulug' shaxs 1400-yil Damashq shahri qamali chog'ida uchrashgan. O'sha vaqtda Amir Temur shaharni zabt etishga yaqin turgan, Ibn Xaldun esa shaharda yashar edi. Temur allaqachon bu olim haqida eshitgan bo'lib, "U Misr askarlari bilan jo'nab ketdimi yoki shaharda qolganmi?", deb qiziqadi. Bu esa Amir Temurning Ibn Xaldun haqida uchrashuvdan avval ham ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, bu xabarni eshitgan Ibn Xaldun oldida ikkita yo'l bor edi: Misr sultoni Nosir Faraj kabi shahardan yashirin qochish yoki Amir Temur qarorgohiga borish. U hayoti xavf ostida bo'lishiga qaramay, ikkinchi yo'lni tanlaydi. 69 yoshli mutafakkir Damashq devoridan arqon yordamida pastga tushib, Sohibqiron huzuriga boradi. U bu jasoratni xalqi nomidan shahar aholisiga omonlik so'rash maqsadida amalga oshiradi va bu iltimosi Temur tomonidan ijobiy qabul qilinadi. Ularning ilk uchrashuvidan boshlab iliq munosabat shakllanadi. Ibn Xaldun va Amir Temur orasida qariyb 35 kun davom etgan ilmiy va falsafiy suhbatlar bo'lib o'tadi.[2] Bu suhbatlar faqat siyosiy emas, balki tarix, geografiya, iqtisod, jamiyat va falsafa kabi fanlarni ham qamrab oladi. Ibn Xaldun Amir Temurning ilmga bo'lgan qiziqishini yuqori baholab, uni nafaqat zabardast sarkarda, balki tafakkurga chuqur sho'ng'iy oladigan bilimdon arbob sifatida ta'riflaydi. Ularning suhbatlarida "asabiyya", ya'ni ijtimoiy birlik haqida Ibn Xaldunning nazariyasi muhim o'rin tutgan. Unga ko'ra, har qanday davlat yoki imperiyaning kuchi shu birlikka bog'liq bo'lib, bu birlik zaiflashgach, tanazzul boshlanadi. Amir Temur bu fikrlarni chuqur qiziqish bilan tinglagan va ularni o'z davlat boshqaruvida hisobga olgan. Shuningdek, u Ibn Xaldundan Mag'rib hududi, uning siyosiy holati va madaniyati haqida ham ko'plab savollar bergan. Temurning bu savollari va e'tibori uning strategik fikrlovchi rahbar ekanini ko'rsatadi. U nafaqat harbiy g'alabalarni, balki ilmiy muloqotni ham davlat mustahkamligining muhim omillaridan biri deb bilgan. Ibn Xaldun esa bu muloqot orqali o'z g'oyalarini boyitgan va keyingi asarlarida Temur bilan bo'lgan suhbatlarini katta hurmat bilan eslab o'tgan. Xulosa qilib aytganda, Temur va Ibn Xaldun o'rtasidagi bu tarixiy uchrashuv ikki davr dahosining fikr almashinuvi bo'lib, u nafaqat ularning shaxsiy ilmiy salohiyatini, balki o'sha davrda ilm-fan, davlat boshqaruvi va falsafa o'rtasida qanday chuqur aloqalar mavjud bo'lganini ham yaqqol namoyon etadi. Bu muloqot keyingi asrlar tafakkur taraqqiyotiga, ayniqsa, G'arb va Sharq ilm-fan aloqalarining shakllanishiga ham muhim hissa qo'shgan.

Amir Temurning hayoti va faoliyatini yozma manbalar orqali o'rganishda eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bu Nizomiddin Shami tomonidan yozilgan "Zafarnoma" (ya'ni, "G'alabalar kitobi") hisoblanadi. «Zafarnoma»ning faqat 2 qo'lyozma nusxasigina saklanib qolgan. Birinchisi, Amir Temurga taqdim etilgan qo'lyozmaning 1425-yilda ko'chirilgan nusxasi bo'lib, u Istanbuldagi «Nuri Usmoniya» masjidi kutubxonasida saqlanadi (№3367). Ikkinchisi, muallif tomonidan Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar bahodir ibn Mironshohga taqsim etilgan qo'lyozmadan 1434-yil ko'chirilgan nusxa bo'lib, u Londondagi «Britaniya muzeyi» kutubxonasida saqlanadi (№23980).[3] Bu asar Amir Temurning bevosita topshirig'i bilan yaratilgan bo'lib, uning hayoti, yurishlari va siyosiy faoliyati haqida ilk batafsil va rasmiy manba sifatida tan olinadi. Nizomiddin Shami o'z zamonasining bilimli tarixchisi bo'lgan. U Temur saroyida xizmat qilgan va hukmdor tomonidan o'z yurishlarini tarixga muhrlash uchun tanlangan. "Zafarnoma", taxminan,1404-yilda yozib tugatilgan. Bu Amir Temur vafotidan atigi bir yil oldin edi, shuning uchun asar hukmdorning hayotiga juda yaqin tarixiy manba hisoblanadi. Shami bu asarni yozishda saroydagi ichki hujjatlar, yurishlar to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat arboblari va Temurga yaqin bo'lgan kishilarning hikoyalari asosida ishlagan. Shu sababli "Zafarnoma"da Temurning harbiy yurishlari, siyosiy qarorlari, turli davlatlar bilan olib borgan muzokaralari haqida aniq, dalillarga tayangan ma'lumotlar berilgan. Asar har taraflama Temurning shon-shuhratini ulug'lash maqsadida yozilgan bo'lsa-da, unda Temurning qanday sarkarda va siyosatchi bo'lgani, qaysi yurtlarga yurish qilgani, kimlar bilan do'stona yoki dushmanona munosabatda bo'lgani haqida juda muhim ma'lumotlar mavjud.

Yevropada Amir Temur haqida ilk manbalardan biri bu ispan elchisi Ruy González de Clavijo tomonidan yozilgan mashhur "Vida y hazañas del gran Tamorlán"[4] ("Buyuk Temur hayoti va qahramonliklari")

---

1 Facebook Ўзбекистон тарихи. История Узбекистана. History of uzbekistan Shohistahon Uljaeva November 12, 2017.

2http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/39963-sohibqiron-amir-temur-va-o-rta-asr-tarixchisi-ibn-xaldun-munosabatlari#:~:text=muslim.uz,%D0%90%D0%BF%D1%80%2009%2C%202024

3 https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zafarnoma/

4 Ruy Gonzalez de Clavijo. Vida y hazanas del gran Tamorlan. Mss.18050. Biblioteca nacional de Espana.

nomli asardir. Enrike III saroyining kamergeri bo‘lgan Ruy González de Clavijo qadimiy va boy urug‘ vakili madridlik bo‘lgan. Clavijoning tug‘ilgan yili aniq ma’lum emas, ammo tarixchilarga ko‘ra u 1412-yilda vafot etgan. Pelayo de Sotomayor va Ernando Sanches de Palasuelo boshchiligidagi birinchi elchilik safarining muvaffaqiyatidan so‘ng, Kastiliya qiroli Enrike III 1403-yilda uni Amir Temur huzuriga yuborilgan ikkinchi elchilik delegatsiyasi rahbari etib tayinladi. Clavijo asari bir necha yillardan keyin Ispaniya adabiyotida juda muhim tarixiy hujjat sifatida qaralgan. Garchi o‘sha davrda Temurga Yevropada katta qiziqish bo‘lgan bo‘lsa-da, Clavijoning kundaliklari uzoq vaqt davomida adabiyot va tarixshunoslar tomonidan yetarlicha e’tiborga olinmagan.[1] Faqatgina XVII–XIX asrlarda olimlar bu asarga jiddiy yondashib, uni ilmiy manba sifatida o‘rganishni boshlashgan. Clavijo o‘z safarida Ispaniyadan Samarqandgacha bo‘lgan yo‘l bo‘ylab ko‘rgan har bir narsani, jumladan, shaharlar, binolar, qal’alar, odamlarning urf-odatlari, turmush tarzi va savdo-sotiqni tafsilotlari bilan yozib bergan. U Temurning saroy hayoti, markaziy hokimiyat ishlari, bozor nazorati, harbiy yurishlar va davlat tuzilmasi haqida muhim ma’lumotlarni qoldirgan. Asarning qadri shundaki, u o‘sha davrda Yevropa uchun Sharq haqida yozilgan eng boy va to‘liq ma’lumotlar to‘plami bo‘lib xizmat qilgan. Clavijo tomonidan yozilgan voqealar orasida Temurning To‘xtamish bilan yurishlari, harbiy strategiyalari, Samarqanddagi saroylar va bog‘lar haqida batafsil hikoyalar bor. Masalan, u Temurning dushmanni aldash maqsadida ayollarga dubulg‘a kiydirib, ularni harbiy askarlarga o‘xshatib qoldirgani, o‘zi esa boshqa yo‘ldan yurib, To‘xtamish ustidan g‘alaba qozongani haqida hikoya qiladi.[2] Bu voqea boshqa tarixiy manbalarda uchramasa-da, yozuvchi Muhammad Ali o‘zining “Ulug‘ saltanat” romanida aynan shu tafsilotdan foydalanadi.[3] Bundan tashqari, Clavijoning yozganlariga ko‘ra, Amir Temur adolatga katta ahamiyat bergan: bozor narxlarining sun’iy ko‘tarilishi uchun savdogarlar sudga tortilgan, davlatda pochta xizmatlari mukammal yo‘lga qo‘yilgan, saroyda aniq tartib va qattiq intizom hukm surgan.[4] Bu kabi tafsilotlar tarixiy asarlar va romanlar uchun noyob materiallar bo‘lib xizmat qilgan va bu kabi hikoyalardan ozarbayjonlik yozuvchi Yunus O‘g‘uz o‘zining “Amir Temur” tarixiy romanida foydalangan.[5]

Bu elchilik safarlari faqat diplomatik missiya bo‘lib qolmasdan, o‘sha davr tarixini o‘rganish uchun juda muhim tarixiy hujjatlarni ham yaratdi. Ruy González de Clavijo kabi elchilarning yozgan asarlari orqali biz Temur saroyining ichki hayoti, siyosiy qarashlari, shaxsiy fe’l-atvori va imperiyaning tashqi siyosati haqida boy va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Xulosa. Demak, Amir Temurga bag‘ishlab yozilgan asarlar bir tomondan tarixiy haqiqatni yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ularning xilma-xil janrda va turli mualliflar tomonidan yozilgani Temur shaxsining murakkab va serqatlam obrazini yaratishga imkon bergan. Bu esa uni jahon tarixidagi eng o‘rganilgan va eng qiziqarli shaxslardan biriga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Али М. Амир Темур чамани. Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2006, 182-бет.

(2). Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент, “Шарқ”, 1996, 141-бет.

(3). Facebook Ўзбекистон тарихи. История Узбекистана. History of uzbekistan Shohistahon Uljaeva November 12, 2017.

(4). http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/39963-sohibqiron-amir-temur-va-o-rta-asr-tarixchisi-ibn-xaldun-munosabatlari#:~:text=muslim.uz,%D0%90%D0%BF%D1%80%2009%2C%202024

(5). https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zafarnoma/

(6). Ruy Gonzalez de Clavijo. Vida y hazanas del gran Tamorlan. Mss.18050. Biblioteca nacional de Espana.

(7). U. Ellis-Fermor, ed., Tamburlane the Great, London, 1930, p. 17.

(8). Рюи Гонзалесъ де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура въ Самаркандъ. Санкт-Петербург, 1881, 339–340-бетлар.

(9). Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогия. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо‖. Т., “Шарқ”, 2010, 341 –342-бетлар.

1 U. Ellis-Fermor, ed., Tamburlane the Great, London, 1930, p. 17.

2 Рюи Гонзалесъ де Клавихо. Дневник путішествия ко двору Тимура въ Самаркандъ. Санкт-Петербург, 1881. 339–340-бетлар.

3 Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогия. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. Т., “Шарқ”, 2010, 341–342 бетлар.

4 Рюи Гонзалесъ де Клавихо. Дневник путішествия ко двору Тимура въ Самаркандъ. Санкт-Петербург, 1881. 188 бет; 200–201-бетлар; 284-бет.

5 Юнус Ўғуз. Амир Темур. Таржимон У.Қўчқор. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2014, 284–300-бетлар; 47-бет; 26–33-бетлар.

(10). Рюи Гонзалесъ де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура въ Самаркандъ. Санкт-Петербург, 1881, 188-bet; 200–201-бетлар; 284-bet.
(11). Юнус Ўғуз. Амир Темур. Таржимон У.Қўчқор. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2014, 284–300-бетлар. 47бет.26-33-бетлар.
(12). Амир Темур Ғарб адабиётида. Монография. Олим Дадабоев. Наманган, Usmon Nosir media, 2021.
(13). https://ru.wikipedia.org/wiki
(14). Haqqulov M., Yarashova M., Muyiddinov B. (2025). Sharafiddin Ali Yazdining "Zafarnoma" asari tahlili. Modern Science and Research, 4(4), p. 398–408.
(15). Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research /article/view/81189
(16). https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ibn-arabshoh-uz/

Marimbayeva Surayyo Umarbek qizi (stajer o'qituvchi, Urganch davlat universiteti; surayyo.m@urdu.uz)

TARJIMADA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASIGA OID LEKSIK SATHNING SAQLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola tarjima jarayonida makon va zamon kategoriyasiga oid leksik birliklarning saqlanishi muammosini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil etadi. Grammatik zamon va aspekt tarjimasiga bag'ishlangan tadqiqotlar adabiyotda keng yoritilgan bo'lib, leksik sath esa mustaqil tarjimaviy muammo sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Maqolada spatiotemporal leksik birliklar – temporal ravishlar, makoniy ko'makchilik konstruksiyalari va madaniy jihatdan o'ziga xos deiktik iboralar – tipologik jihatdan uzoq turgan tillar o'rtasida to'liq ekvivalentlikni ta'minlashga qiyin bo'lgan semantik va madaniy jihatdan zich leksik qatlamni tashkil etishi asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, spatiotemporal leksikaning to'liq saqlanishi nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyani ham talab etuvchi murakkab jarayondir.*

Kalit so'zlar: *spatiotemporal leksika, tarjima ekvivalentligi, leksik saqlanish, o'zbek-ingliz qiyosiy tahlili, konseptual metafora, tarjimaviy yo'qotish, lakunalar, tipologik assimetriya.*

Маримбаева Сурайё Умарбек кизи (стажер-преподаватель, Ургенчский государственный университет; surayyo.m@urdu.uz)

СОХРАНЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ПЛАСТА, СВЯЗАННОГО С КАТЕГОРИЯМИ ПРОСТРАНСТВА И ВРЕМЕНИ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *Данная статья посвящена сравнительно-типологическому анализу проблемы сохранения лексических единиц, выражающих категории пространства и времени, в процессе перевода с узбекского на английский язык и наоборот. Доказывается, что полное сохранение спациотемпоральной лексики требует не только лингвистической, но и культурной компетенции переводчика.*

Ключевые слова: *спациотемпоральная лексика, переводческая эквивалентность, сравнительный анализ узбекского и английского языков, концептуальная метафора, лакуны.*

Marimbaeva Surayyo Umarbek kizi (trainee teacher, Urgench State University. surayyo.m@urdu.uz)

PRESERVATION OF THE LEXICAL STRATUM RELATED TO SPACE AND TIME CATEGORIES IN TRANSLATION

Annotation. *This article presents a comparative-typological analysis of the preservation of lexical units expressing space and time categories in translation between Uzbek and English. While grammatical tense and aspect in translation have received considerable scholarly attention, the lexical stratum remains underexplored as an independent site of translational difficulty. Drawing on equivalence theory, the concept of translational shifts, and conceptual metaphor theory, the paper examines lexical mismatches arising from typological asymmetry, cultural conceptualization, and genre-conditioned translation strategies. The results demonstrate that full preservation of spatiotemporal lexis requires not only linguistic but also cultural competence.*

Keywords: *spatiotemporal lexis, translation equivalence, lexical preservation, Uzbek-English contrastive analysis, conceptual metaphor, translational loss, lacunae, typological asymmetry.*

Kirish (Introduction). Tarjima nazariyasida tillararo munosabatlarning qaysi qatlami eng ko'p e'tiborni talab etishi haqidagi bahs hali ham o'z yechimini to'la topmagan. Ko'pchilik tadqiqotlar grammatik munosabatlar, jumladan, zamon, aspekt va modal konstruktsiyalarning o'tkazilishi – atrofida jamlangan bo'lib, leksik sathga nisbatan bunday izchil qiziqish kuzatilmagan. Ayni shu bo'shliq ushbu maqolaning asosiy motivatsiyasi hisoblanadi.